| Talabalar identiteti va ularga ijtimoiy tarmoqlar ta'sirining global ahamiyati | 702 |
| <i>N. T. Tojiboyeva</i> | |
| Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishning zamonaviy usullari | 707 |
| <i>Narzullayev Mavlonbek Zikrillo o'g'li, Ostonov Zafar Zamonovich</i> | |
| Ta'lim metodlari va usullarini modernizatsiya qilish asosida ilmiy tadqiqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi..... | 710 |
| <i>Olimov Temir Xasanovich</i> | |
| Changes in Adolescents' Communication Under the Influence of Social Media: Emotional Intelligence and Internet Addiction Issues | 715 |
| <i>Salomov Shamsiddin Sabokhiddin Ugli</i> | |
| O'smir qizlarning jismoniy rivojlanishini takomillashtirishda defile mashqlaridan foydalanish metodikasi ... | 720 |
| <i>Shaxbazova Gulrux Orifjon qizi, Abdullayeva Maxbuba</i> | |
| Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning divergent fikrlashini shakllantirish metodikasi..... | 724 |
| <i>Ubaydullayeva Nazokat Ibodullo qizi</i> | |
| Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining pedagogik ko'nikmalarini rivojlantirish: nazariy asoslar, amaliy modellar va innovatsion yondashuvlar | 728 |
| <i>Umurzoqova Laylo Baxtiyor qizi</i> | |
| Talaba-yoshlar jismoniy madaniyat va sportini rivojlantirishning strategik imkoniyatlari | 733 |
| <i>Yusupxo'jayev Oxunjon Shuxrat o'g'li</i> | |
| Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari..... | 737 |
| <i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i> | |
| Компенсация трудностей в обучении детей младшего школьного возраста, находящихся на длительном лечении | 742 |
| <i>Алимова Нигора Исраиловна, Холлиева Нодира Хайтмуратовна</i> | |

| | |
|--|-----|
| Формирование профессиональных компетенций будущих художников через освоение узбекского орнамента в системе заданий по композиции..... | 745 |
| Д. Б. Бабаева | |
| Методика и подходы обучения речи в школьной практике | 750 |
| Шарипов Одилжлон Гуломжон угли | |
| Iqtidorli talabalarni aniqlash va rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar | 754 |
| Abdiyeva E'zoza Beknazar qizi | |
| Innovatsion menejment tizimida malakali kadrlar tayyorlashning samarali mexanizmlari | 759 |
| Hikmatova Niginabonu Siddiq qizi | |
| Oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilarni anonim baholash tizimining ishonchligi va pedagogik samaradorligini baholash..... | 764 |
| Maksudova Aziza Ikramdjanovna, Akramxo'jayev Yo'ldoshxo'ja Tursunxo'jayevich, Avezov Toshtemir Abdualiyevich, Abdullayeva Maftuna Shonazarovna | |
| Raqamli ta'lim muhitida mexanikani o'qitishning pedagogik muammolari..... | 771 |
| Choriyev Islom G'ayratovich | |
| Musiqqa mashg'ulotlarida sun'iy intellekt texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari..... | 775 |
| Siddiqova Gulnoza Sharaviddinovna, Bahora Akbarova | |
| Moychechak yetishtirishda mineral va organik o'g'itlarning ta'siri | 778 |
| Jabbarova Nigina Zoxidjon qizi | |
| Kompetensiyaviy yondashuv sharoitida bo'lg'usi matematika o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish | 783 |
| Esonov Munavvarjon Mukimjonovich, Xabibullayev Islomjon Soyibjon o'g'li | |
| Специфика формирования математического мышления студентов вузов посредством модуля "векторы" | 786 |
| Эсонов Мунавваржон Мукимжонович, Салихов Амир Тимурович | |
| Autizm spektri buzilishiga ega bolalar oilalarida sibling munosabatlarining nazariy-metodologik asoslari.. | 790 |
| Rayimova Gulchehra Utkur qizi | |
| Особенности использования инструментов управления проектами: отраслевой подход..... | 794 |
| Сидиков Зиёдулло Равшанович, Холиярова Шохиста Кахрамоновна | |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maxsus ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etishda qiyinchiliklar va samarali strategiyalar..... | 800 |
| Abdalimova Iroda Ummatqul qizi | |
| Manzara janrining tasviriy san'atdagi o'rni: ekologik-estetik mazmuni va ta'limiy imkoniyatlari | 805 |
| Abdumajidova O'g'loy Ravshanjon qizi | |
| E-Assessment vositalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va funksional imkoniyatlari..... | 809 |
| Abdumannopov Murodjon Ilxomjon o'g'li | |
| Masofaviy ta'lim jarayonida talabalar faolligini oshirishning interfaol metodlari..... | 813 |
| Abduvaxobov Shohruhbek Ikromjon o'g'li | |
| Bo'lajak chet tili o'qituvchilarini tayyorlashdagi muammolar | 816 |
| Davlatova Furuza Kamolovna | |
| Biologiya darslarida muammoli ta'lim va zoologiya fanini o'qitishda STEAM ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish | 820 |
| Hayitov Abdurasul Eshdaviatovich, Xolboyeva Nigina Uchqunovna, Ravshanov Asliddin Ulug'bek o'g'li | |
| Sport gimnastikasida innovatsion texnologiyalarni joriy etishning pedagogik va amaliy jihatlari..... | 826 |
| Karimov Doniyor Komil o'g'li | |
| Neyropsixologiya va neyropedagogikaning shakllanishi va rivojlanish tarixi..... | 830 |
| N. O. Saidova | |
| Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishining nazariy asoslari..... | 833 |
| Nosirova Shoxsanam Negmat qizi | |
| Maxsus pedagogning kasbiy kompetentligi: zamonaviy yondashuvlar va muammolar | 837 |
| Shodiyeva Gulchiroy Nurqosimovna | |
| O'quvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirishda tasviriy san'at va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish..... | 841 |
| Tulaganov Jahongir Abdimurot o'g'li | |



| | |
|---|-----|
| Vizual ta'lim texnologiyalari yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini diagrammaviy masalalar yordamida rivojlantirish | 845 |
| Usmonova Shahlo Saidjon qizi | |
| Biologiya darslarida o'quvchilarning ilmiy xabardorlik kompetensiyasini shakllantirishda mashq va masalalardan foydalanish metodikasi | 849 |
| Yakubova Fotima Xamza qizi | |
| Система духовных ценностей в современной русской прозе (а. волос "сирийские розы") | 853 |
| Ольга Чангировна Хегай | |
| Alohida yordamga muhtoj bolalar toifalari va ularning pedagogik-psixologik tasnifi | 856 |
| Xaydarova Umidaxon Baxromjon qizi | |



Hayitov Abdurasul Eshdavlatovich
Termiz davlat pedagogika instituti,
Kimyo-biologiya kafedrasida katta o'qituvchisi

BIOLOGIYA DARSLARIDA MUAMMOLI TA'LIM VA ZOOLOGIYA FANINI O'QITISHDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH



Xolboyeva Nigina Uchqunovna
Termiz davlat pedagogika instituti,
Biologiya ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi



Ravshanov Asliddin Ulug'bek o'g'li
Termiz davlat pedagogika instituti,
Biologiya ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada biologiya darslarida muammoli o'qitish metodidan foydalanish orqali o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish va ta'lim samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot davomida muammoli vaziyatlar, STEAM integratsiyasi asosida o'qitishning afzalliklari, dars jarayonida qo'llaniladigan usullar, loyiha va tajribalar misolida o'quvchilarning ilmiy fikrlash, muammo yechish, ijodkorlik, ekologik savodxonlik hamda raqamli madaniyat kabi kompetensiyalarining shakllanishi o'rganildi. Muammoli savollar hamda interfaol metodlar yordamida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahliliy yondashuvi va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Pedagogik tajriba natijalari biologiya darslarida muammoli o'qitish metodining qo'llanilishi o'quvchilarning bilim darajasi, darsga qiziqishi va kreativ fikrlash ko'rsatkichlarini oshirishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: biologiya ta'limi, muammoli o'qitish metodi, kreativ fikrlash, interfaol metodlar, pedagogik texnologiya, ta'lim samaradorligi. STEAM ta'limi, zoologiya, biologiya ta'limi, innovatsion pedagogika, fanlararo integratsiya, raqamli texnologiyalar, 3D modellashirish, virtual laboratoriyalar, kreativ fikrlash, ilmiy izlanish, kompetensiya yondashuvi, interaktiv metodlar, tajriba-sinov ishlari.



Abstract: This article discusses the issues of developing students' creative thinking and increasing educational efficiency through the use of the problem-based teaching method in biology lessons. During the study, the advantages of teaching based on problem situations, STEAM integration, methods used in the lesson process, the formation of students' competencies such as scientific thinking, problem solving, creativity, environmental literacy, and digital culture were studied using the example of projects and experiments. It was found that lessons organized using problem questions and interactive methods have a positive effect on the development of students' independent thinking, analytical approach, and creative thinking. The results of pedagogical experience showed that the use of the problem-based teaching method in biology lessons increases students' knowledge level, interest in the lesson, and creative thinking indicators.

Key words: biology education, problem-based teaching method, creative thinking, interactive methods, pedagogical technology, educational efficiency. STEAM education, zoology, biology education, innovative pedagogy, interdisciplinary integration, digital technologies, 3D modeling, virtual laboratories, creative thinking, scientific research, competency approach, interactive methods, experimental work.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы развития творческого мышления учащихся и повышения эффективности обучения посредством использования проблемно-ориентированного подхода в уроках биологии. В ходе исследования на примере проектов и экспериментов изучались преимущества обучения на основе проблемных ситуаций, интеграции STEAM-подхода, методов, используемых в процессе урока, формирования у учащихся таких компетенций, как научное мышление, решение проблем, креативность, экологическая грамотность и цифровая культура. Было установлено, что уроки, организованные с использованием проблемных вопросов и интерактивных методов, оказывают положительное влияние на развитие самостоятельного мышления, аналитического подхода и творческого мышления учащихся. Результаты педагогического опыта показали, что использование проблемно-ориентированного подхода в уроках биологии повышает уровень знаний учащихся, интерес к уроку и показатели творческого мышления.

Ключевые слова: биологическое образование, проблемно-ориентированный подход, творческое мышление, интерактивные методы, педагогические технологии, эффективность обучения. STEAM-образование, зоология, биологическое образование, инновационная педагогика, междисциплинарная интеграция, цифровые технологии, 3D-моделирование, виртуальные лаборатории, творческое мышление, научные исследования, компетентностный подход, интерактивные методы, экспериментальная работа.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning bilim olish jarayonida faol ishtirok etishi, mustaqil fikrlashi va kreativ yondashuvga ega bo'lishi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni faqat tayyor bilim bilan ta'minlash emas, balki ularning tahliliy fikrlashini rivojlantirish ham muhim pedagogik vazifalardan biridir. Ayniqsa tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarning ilmiy tafakkurini shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta'limning asosiy yo'nalishlaridan biri – o'quvchilarni XXI asr kompetensiyalari bilan qurollantirish, ya'ni tanqidiy fikrlash, ilmiy izlanish ko'nikmalari, kreativ yondashuv, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish kabi malakalarni rivojlantirishdir. STEAM ta'lim texnologiyalari aynan shu maqsadga xizmat qiluvchi integrativ yondashuv bo'lib, u tabiiy fanlarni san'at, texnologiya va matematika bilan uzviy bog'lab o'qitishni ko'zda tutadi.

Biologiya fani tirik organizmlar, ularning tuzilishi, rivojlanishi hamda ekologik jarayonlarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, bu jarayonlarni tushunishda o'quvchilarning kuzatish, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatlarini muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun biologiya darslarida o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladigan innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish zarur.

Muammoli o'qitish metodi ana shunday samarali pedagogik metodlardan biri hisoblanadi. Bu metod o'quvchilarni muammoli vaziyatga duchor qilish orqali ularni mustaqil fikrlashga, muammoni tahlil qilishga va yangi g'oyalar ishlab chiqishga undaydi. Biologiya darslarida muammoli vaziyatlarni yaratish o'quvchilarning bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishiga yordam beradi.

XXI asrda ta'lim jarayonining modernizatsiyasi global tendensiyalar ta'sirida yangi pedagogik yondashuvlarga ehtiyojni kuchaytiradi. Ayniqsa tabiiy fanlarning amaliy ahamiyatini oshirish, o'quvchilarda ilmiy fikrlash, tadqiqotchilik va texnik kreativlikni shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan STEAM ta'lim texnologiyalari o'quv jarayonini innovatsion, integrativ va tadqiqotga yo'naltirilgan holga keltirishning eng samarali vositalaridan biri bo'lib bormoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi biologiya darslarida muammoli o'qitish metodidan foydalanish orqali o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish va pedagogik samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy ta'lim tizimida biologiya fanini o'qitishda o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, muammoli ta'lim metodlari hamda STEAM ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ilmiy tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita sifatida qaralmoqda. Shu sababli pedagogika va biologiya ta'limi metodikasiga oid ilmiy adabiyotlarda mazkur yondashuvlarning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati keng yoritilgan.

Pedagogika fanida muammoli ta'lim (problem-based learning) o'quvchilarning faol bilish jarayonini tashkil etishga qaratilgan samarali metodlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Muammoli ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilar oldiga ilmiy muammo yoki muammoli vaziyat qo'yadi, o'quvchilar esa ushbu muammoni mustaqil tahlil qilish, taxminlar ilgari surish va yechim topish orqali bilimlarni o'zlashtiradilar. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, muammoli ta'lim metodlari o'quvchilarning mantiqiy, tahliliy hamda kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Biologiya darslarida muammoli ta'lim metodlaridan foydalanish ayniqsa samarali hisoblanadi. Chunki biologiya fani tabiiy jarayonlar, organizmlar tuzilishi va ularning o'zaro munosabatlarini o'rganishga asoslangan bo'lib, unda turli ilmiy muammolar va tadqiqot vaziyatlari ko'p uchraydi. Muammoli vaziyatlar yaratish orqali o'quvchilar biologik jarayonlarni chuqurroq tahlil qilishga, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlashga va mustaqil xulosalar chiqarishga o'rganadilar.

So'nggi yillarda biologiya va zoologiya fanlarini o'qitishda STEAM ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ham keng rivojlanmoqda. STEAM yondashuvi fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering), san'at (Art) va matematika (Mathematics) yo'nalishlarini integratsiyalashgan holda o'qitishni nazarda tutadi. Bu yondashuv o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy va ijodiy faoliyatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zoologiya fanini o'qitishda STEAM texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarga hayvonlar dunyosini turli fanlar integratsiyasi asosida o'rganish imkonini beradi. Masalan, hayvonlarning harakat mexanizmini o'rganishda fizika va biologiya bilimlari uyg'unlashtiriladi, hayvonlar yashash muhiti va ekologik tizimlarni o'rganishda esa geografiya, ekologiya va matematika elementlari qo'llaniladi. Shuningdek, o'quvchilar turli loyihalar, modellar va tajribalar orqali ilmiy izlanish faoliyatiga jalb etiladi.

Xorijiy pedagogik tadqiqotlarda ham muammoli ta'lim hamda STEAM texnologiyalarining o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishdagi ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, interfaol ta'lim metodlari va integratsiyalashgan STEAM yondashuvi o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi, muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi hamda ularning ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantiradi.

O'zbek olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ham biologiya darslarida muammoli ta'lim va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirishda muhim omil ekanligi qayd etilgan. Ularning fikriga ko'ra, biologiya va zoologiya fanlarini o'qitishda STEAM texnologiyalarini qo'llash o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, ularni mustaqil izlanishga yo'naltirish hamda amaliy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot ishida biologiya darslarida muammoli ta'lim hamda zoologiya fanini o'qitishda STEAM texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish samaradorligini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi.

- *Birinchi*dan, ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish metodi qo'llanildi. Ushbu metod yordamida pedagogika, biologiya ta'limi metodikasi hamda STEAM ta'lim texnologiyalariga oid ilmiy manbalar o'rganilib, tadqiqot mavzusining nazariy asoslari tahlil qilindi.
- *Ikkinchi*dan, kuzatish metodidan foydalanildi. Bu metod orqali biologiya darslarida muammoli ta'lim hamda STEAM texnologiyalaridan foydalanish jarayoni kuzatilib, o'quvchilarning faolligi, kreativ fikrlashi va darsdagi ishtiroki o'rganildi.
- *Uchinchi*dan, pedagogik tajriba (eksperiment) metodi qo'llanildi. Tajriba jarayonida biologiya va zoologiya darslarida muammoli ta'lim metodlari hamda STEAM texnologiyalari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatiga ta'siri tahlil qilindi.
- *To'rtinchi*dan, so'rovnomalar va suhbat metodlari orqali o'quvchilar va o'qituvchilarning muammoli ta'lim va STEAM texnologiyalariga bo'lgan munosabati hamda ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligi aniqlashtirildi.
- *Beshinchi*dan, natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish metodi orqali tajriba jarayonida olingan ma'lumotlar tizimlashtirilib, ularning ilmiy xulosalari ishlab chiqildi.



Natijada qo'llanilgan metodlar biologiya darslarida muammoli ta'lim hamda zoologiya fanini o'qitishda STEAM texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik samaradorligini aniqlash imkonini berdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchilari orasida olib borildi. Tajribada jami 60 nafar o'quvchi ishtirok etdi.

1. Tajriba guruhi: 30 nafar o'quvchi (muammoli o'qitish metodi qo'llanildi)
2. Nazorat guruhi: 30 nafar o'quvchi (an'anaviy metod)

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. **Pedagogik kuzatish metodi.** Biologiya darslarida o'quvchilarning darsdagi faolligi, muammoli vaziyatlarga munosabati hamda ijodiy fikrlash jarayoni kuzatildi.
2. **Pedagogik tajriba-sinov metodi.** Tadqiqot umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkazildi. Tajriba va nazorat guruhlarini tashkil etildi. Tajriba guruhida biologiya darslari muammoli o'qitish metodlari asosida olib borildi, nazorat guruhida esa an'anaviy metodlar qo'llanildi.
3. **Savolnoma va test metodlari.** O'quvchilarning kreativ fikrlash darajasi va biologiya faniga qiziqishini aniqlash uchun maxsus test topshiriqlari va savolnomalar o'tkazildi.
4. **Statistik tahlil metodi.** Olingan natijalar taqqoslab tahlil qilindi.

Muammoli o'qitish jarayonida quyidagi usullar qo'llanildi:

- muammoli savollar berish;
- biologik jarayonlar asosida muammoli vaziyatlar yaratish;
- guruhli muhokama;
- bahs-munozara tashkil etish.

Masalan, ekologiya mavzusida quyidagi savol berildi:

“Ekotizimdagi ayrim hayvon turlarining yo'qolib ketishi tabiat muvozanatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?”

Bu savol o'quvchilarni ekologik muammolar haqida fikrlashga undaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Biologiya darslarida muammoli ta'lim metodlari hamda zoologiya fanini o'qitishda STEAM ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot ishlari muayyan pedagogik natijalarni ko'rsatdi. Tajriba-sinov jarayonida biologiya darslari muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilib, o'quvchilarni mustaqil fikrlash, ilmiy farazlar ilgari surish va muammolarni yechish faoliyatiga jalb etishga alohida e'tibor qaratildi.

Tadqiqot davomida muammoli ta'lim metodlaridan foydalanilgan darslarda o'quvchilarning bilish faolligi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. O'quvchilar biologik hodisalar va jarayonlar yuzasidan mustaqil ravishda fikr yuritish, savollar qo'yish va ilmiy xulosalar chiqarishga intildilar. Muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirib, ularning o'rganilayotgan mavzuga nisbatan qiziqishini kuchaytirdi.

Zoologiya fanini o'qitishda STEAM ta'lim texnologiyalarini qo'llash esa o'quvchilarning fanlararo integratsiya asosida bilimlarni egallashiga imkon yaratdi. Dars jarayonida hayvonlarning tuzilishi, hayot faoliyati va ekologik xususiyatlarini o'rganishda turli amaliy tajribalar, modellashtirish ishlari, loyiha faoliyati hamda axborot texnologiyalaridan foydalanildi. Bu esa o'quvchilarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishga hamda ularning ijodiy yondashuvini shakllantirishga xizmat qildi.

Tajriba-sinov natijalari shuni ko'rsatdiki, muammoli ta'lim va STEAM texnologiyalari asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasi, darsdagi faolligi hamda kreativ fikrlash ko'rsatkichlari an'anaviy ta'lim usullari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarga nisbatan yuqori bo'ldi. Ayniqsa, guruhli loyihalar, muammoli topshiriqlar va amaliy tadqiqot ishlari o'quvchilarning mustaqil izlanish faoliyatini kuchaytirib, ularning ijodiy fikrlashini rivojlantirdi.

Biologiya fanining mazmuni tabiiy jarayonlar va tirik organizmlar faoliyati bilan bog'liq bo'lgani sababli, muammoli vaziyatlar yaratish uchun keng imkoniyatlarga ega. Bunday yondashuv o'quvchilarning biologik

jarayonlar mohiyatini chuqurroq anglashiga, sabab-oqibat bog'lanishlarini tahlil qilishiga hamda ilmiy xulosalar chiqarishiga yordam beradi.

STEAM ta'lim texnologiyalaridan foydalanish esa biologiya va zoologiya fanlarini boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda o'qitish imkonini beradi. Fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning bilimlarini kengaytiradi, ularni real hayotiy muammolarni hal qilishga tayyorlaydi hamda kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ayniqsa, modellashtirish, tajriba o'tkazish, loyiha ishlari va texnologik vositalardan foydalanish o'quvchilarning ijodiy yondashuvini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Shunday qilib, biologiya darslarida muammoli ta'lim metodlari hamda zoologiya fanini o'qitishda STEAM ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Mazkur yondashuv o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ilmiy izlanish ko'nikmalari hamda amaliy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi va biologiya ta'limining samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

Pedagogik tajriba natijalari biologiya darslarida muammoli o'qitish metodidan foydalanish o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatganini ko'rsatdi.

Tajriba guruhidagi o'quvchilarning biologiya faniga qiziqishi va darsdagi faolligi sezilarli darajada oshdi. Muammoli savollar va vaziyatlar o'quvchilarning tahliliy fikrlashini kuchaytirib, muammolarga kreativ yechim topish ko'nikmalarini shakllantirdi.

Quyidagi jadvalda tajriba va nazorat guruhlarini natijalari keltirilgan.

1-jadval: Muammoli o'qitish metodining STEAM yondashuv asosida o'quvchilarning kreativ fikrlashiga ta'siri

| No | Ko'rsatkichlar | Tajriba guruhidan oldin (%) | Tajriba guruhidan keyin (%) | Nazorat guruhidan oldin (%) | Nazorat guruhidan keyin (%) |
|----|-------------------------------------|-----------------------------|-----------------------------|-----------------------------|-----------------------------|
| 1 | Biologiya faniga qiziqish | 52 | 78 | 50 | 57 |
| 2 | Mustaqil fikrlash darajasi | 48 | 75 | 47 | 55 |
| 3 | Muammoli vaziyatlarga yechim topish | 45 | 73 | 44 | 53 |
| 4 | Kreativ g'oyalar ilgari surish | 40 | 70 | 39 | 50 |

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, muammoli o'qitish metodidan foydalanilgan tajriba guruhida barcha ko'rsatkichlar sezilarli darajada oshganligi.

Tadqiqot natijalari biologiya darslarida muammoli o'qitish metodidan foydalanish o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam berishini ko'rsatdi. Muammoli o'qitish metodining asosiy afzalligi shundaki, u o'quvchilarni faol fikrlashga va mustaqil izlanishga undaydi.

Biologiya fanida ko'plab murakkab jarayonlar mavjud bo'lib, ularni tushuntirishda muammoli vaziyatlar yaratish o'quvchilarning bilimni chuqurroq o'zlashtirishiga yordam beradi. Masalan, ekologiya, genetika va evolyutsiya kabi mavzularda muammoli savollar qo'llash o'quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantiradi.

Muammoli o'qitish metodidan foydalanish quyidagi pedagogik natijalarga olib keladi:

- o'quvchilarning mustaqil fikrlashi rivojlanadi;
- kreativ va tahliliy tafakkur shakllanadi;
- dars jarayonida faol ishtirok ta'minlanadi;
- biologiya faniga qiziqish ortadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Biologiya darslarida muammoli ta'lim metodlari hamda zoologiya fanini o'qitishda STEAM ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, muammoli ta'lim asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini faollashtiradi, ularni ilmiy muammolarni tahlil qilish, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash hamda asoslangan xulosalar chiqarishga yo'naltiradi.

Zoologiya fanini o'qitishda STEAM ta'lim texnologiyalaridan foydalanish esa o'quvchilarning fanlararo integratsiya asosida bilimlarni o'zlashtirishiga imkon yaratadi. Mazkur yondashuv biologiya, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika fanlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib berish orqali o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi hamda ularning ijodiy yondashuvini rivojlantiradi. Amaliy tajribalar, modellashtirish ishlari, loyiha faoliyati va interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning ilmiy-tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.



Shuningdek, muammoli ta'lim metodlari va STEAM texnologiyalarini uyg'unlashtirib qo'llash o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi, ularning mustaqil izlanishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi hamda bilimlarni chuqur va barqaror o'zlashtirishga yordam beradi. Bunday yondashuv o'quvchilarning kreativ fikrlashi, tahliliy tafakkuri hamda muammolarni samarali hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, biologiya darslarida muammoli ta'lim metodlari va zoologiya fanini o'qitishda STEAM ta'lim texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy ta'lim talablariga mos keluvchi samarali pedagogik yondashuv hisoblanadi. Mazkur yondashuv o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish, ularni ilmiy izlanishga yo'naltirish hamda biologiya ta'limining sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tolipov O.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2019.
2. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent, 2018.
3. Ishmuhamedov R. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent, 2020.
4. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2017.
5. Tolipova J.O. Biologiyani o'qitishda pedagogik texnologiyalar (darslik) Toshkent-2011
6. Ergasheva G.S. Biologiyada axborot- kommunikatsiya texnologiyalari (o'quv qo'llanma) Toshkent-2011 (Bakalavriat).
7. Hayitov A. E., Aslanova X. G. Use of students'logical thinking elements in teaching zoology in higher education institutions //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 10. – C. 166-169.
8. Hayitov A. Bo'lajak biologiya o'qituvchisining amaliy mashg'ulotlarni loyihalashtirishning nazariy-metodik asoslari // Biologiyaning zamonaviy tendensiyalari: muammolar va yechimlar. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 805-807.
9. Hayitov A. Xorijiy davlatlarda biologiya o'qituvchilarini tayyorlash tajribasi va uni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari //Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. – 2025. – T. 3. – №. 8.
10. Hayitov A. E., Umirzaqova G. E. Biologiya darslarida laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi //Экономика и социум. – 2025. – №. 7-2 (134). – C. 114-120.
11. Hayitov A. E., Ibragimov H. R., Saidabdullayev A. M. Botanika fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish bosqichlari // Экономика и социум. – 2024. – №. 6-2 (121). – C. 228-231.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.